

BO'LAJAK CHAQIRUVGA QADAR BOSHLANG'ICH TAYYORGARLIK RAHBARINIG O'QUV-JANGOVAR QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH

Umarov Ismoiljon Olimjonovich

*Fag'ona davlat universiteti harbiy ta'lim fakulteti o'qituvchisi
rezervdagi podpolkovnik*

Alijonov Baxtiyor Xoshimovich

*Fag'ona davlat universiteti harbiy ta'lim fakulteti o'qituvchisi
rezervdagi mayor*

Anotatsiya: *Jangovar faoliyat harbiy faoliyatning shunday turiki, u faoliyat jang, urush sharoitida amalga oshiriladi. Dushman, uning jonli kuchi va texnikasi, harbiy inshootlari jangovar faoliyatning ob'ekti hisoblanadi. Dushmanga qarshilik ko'rsatish va uni yakson qilish uchun har xil moddiy va ma'naviy vositalardan, eng avvalo qurol-yarog' va jangovar texnikadan foydalaniladi. Shu bilan birga jangchilarning axloqiy-ruhiy xolati o'quv jangovar xolatlarda, jangovar vazifani bajarish davomida uzluksiz axborot-tarbiyaviy ishlari olib borib maqsadga muvofiqligi nazarda tutilgan.*

Kalit so'zlar: *O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari, favqulodda vaziyatlar, jangovar, harbiy, jang, ma'naviy, sharoit, faoliyat, urush, texnika, qurol-yarog', harbiy xizmatchi, baynalmillik, psixologik, ma'naviy-ma'rifiy, jangovar texnika, to'qnashuvlar.*

Kirish qismi: *Jangovar faoliyat asosan ikki tomonlama, rejali qurolli to'qnashuvlar sharoitida amalga oshiriladi.*

Shuning uchun ham jangovar faoliyatga quyidagicha ta'rif berish mumkin: jangovar faoliyat bu – qurollar va harbiy texnikalardan foydalanib, dushman ustidan g'alaba qozonishga qaratilgan hatti-harakatlar tizimi. Jangovar faoliyat individual va jamoa xatti-harakatlari shaklida yoki shaxsiy tarkibga rahbarlik qilish shaklida kechadi.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining jangovar faoliyatlari quyidagi xususiyatlarga ega:

yuksak ma'naviy-siyosiy ahamiyatga egaligi, mustaqillik g'oyalarini himoya qilishga qaratilganligi;

qurollar va harbiy texnika kabi vositalarning amalda qo'llanilishi;

maqsad va pirovard natijalarning o'ziga xosligi (dushman askarlarini o'ldirish, uning inshootlari va texnikasini vayron etish, hududlarni egallash va hokazo);

ob'ektning o'ziga xos xarakterga egaligi (faol qarshilik ko'rsatuvchi dushman, uning jangovar texnikasi va boshqalar);

u amalga oshadigan sharoitning ekstremal xarakteri, xavf-xatarning yuqoriligi, favqulotda holatlarning mavjudligi;

shaxs imkoniyat darajasidan oshib ketadigan zo'riqish va vazifalarning paydo bo'lishi;

harbiy xizmatchilarga tushadigan jismoniy, aqliy va ruhiy zo'riqishlarning yuqoriligi.

Asosiy qismi: Ma'lumki har qanday faoliyat mohiyatini maqsad va ehtiyojlar belgilaydi.

Maqsadlar yaqin va olis maqsadlarga bo'linadi. O'z vazifalarini aniq va vijdonan bajarish harbiy xizmatchi faoliyatining yaqin maqsadi hisoblanadi. Jangovar faoliyatning olis maqsadi esa, dushmanni yanchib, uning ustidan to'la g'alabaga erishishdan iborat. Jangovar harakat o'z maqsadi bilan bir qatorda o'ziga xos motivlarga ham ega bo'ladi. Jangovar harakat motivlari deb, harbiy xizmatchini urush sharoitida faollikka undovchi kuchlarga aytiladi: ideallar, e'tiqod, ehtiyojlar, hissiyot, istak, intilish, qiziqish va hokazo.

Harbiy xizmatchi jangovar faoliyatining motivlarida quyidagilar o'z aksini topadi: shaxs yo'nalishi; urushga munosabati; topshirilgan vazifaga, komandirga, jamoaga munosabati.

Jangovar faoliyat motivatsiyasida ijtimoiy motivlar, shubhasiz katta rol uynaydi:

- Vatan himoyasi uchun mas'ullik;
- harbiy burchga sadoqat;
- baynalminallik;
- dushmanga nafrat.

Harbiy xizmatchi jangovar faoliyatining samardorligi uning ruhiy holati va kayfiyatiga juda ham bog'liq bo'ladi. Harbiy xizmatchi jangovar faoliyatining samaradorligi quyidagi psixologik shart-sharoitlarga bog'liq bo'ladi:

- ijobiy ijtimoiy xulq-atvor motivlari;
- bilish jarayonlarining nisbatan yuksak rivojlanganligi;
- barqaror hissiy-irodaviy sifatlarning mavjudligi;
- jangovar mahorat;
- stenik ruhiy holat.

Harbiy jamoa jangovar faoliyatining samaradorligi esa quyidagilarga bog'liq bo'ladi:

- vazifalarni bajarish uchun umumiy intilish;
- iroda uygunligi;
- tafakkur uyg'unligi;
- ijtimoiy fikr;
- jamoa kayfiyati;
- tajriba.

Harbiy faoliyatda yangi qurol-yarog' va harbiy texnikalarni qo'llash shunga olib keldiki, endi jangdagi g'alaba harbiy xizmatchilarning hamkorligidagi, o'zaro kelishilgan harakatlari bilan ta'minlanadi.

Jangda faoliyatlarning har xil darajalari bo'lishi mumkin. Favqulodda vaziyatlarda jamoada emotsional-irodaviy barqarorlik etarli bo'lmasa, salbiy hissiyotlar ustunlik qiladi. Natijada funksional vazifalarni bajarishda noaniqliklar va xatoliklar kelib chiqadi. Bu faoliyatning salbiy darajasi hisoblanadi. Etarlicha g'oyaviy ko'nikma va ahloqiy-ruhiy tayyorgarlik mavjud bo'lganda faoliyatda bunday salbiy hodisalar kuzatilmaydi. Bunday

faoliyat maqsad, tafakkur, iroda, mahorat, vazifalarni bajarishga intilish istagi kabilar bilan rivojlanadi va boshqariladi. Bu faoliyatning oliy darajasi bo'lib hisoblanadi.

Shunga mos ravishda jamoa faoliyati darajalari ham o'zgarib turadi.

Kayfiyatning ko'tarilishi, g'alabaga bo'lgan ishonch hissi, dushmanga nafrat kabilar jamoani faollashtiradi, uni hal qiluvchi harakatlarga undaydi. Aksincha, o'zaro munosabatlarning zaiflashishi, nizolar chiqishi faoliyat darajasini pasaytiradi.

Komandirlar jamoada past darajadagi faoliyat paydo bo'lishining oldini olishlari, aksincha, yuqori darajadagi faoliyat yaratishni ta'minlashlari lozim.

Buning uchun esa komandir jamoaning, har bir harbiy xizmatchining imkoniyatlarini yaxshi bilishi zarur.

Psixologiya nuqtai nazaridan jangovar faoliyatga rahbarlik qilish har bir harbiy xizmatchining, jamoaning ruhiyatiga rejali ta'sir o'tkazishdan iborat. Rahbarlik qilish samarali faoliyat uchun ichki va tashqi optimal sharoitlarni ta'minlashdan iborat.

O'QUV-JANGOVAR FAOLIYAT XUSUSIYATLARI.

O'quv-jangovar faoliyat faoliyatning shunday turiki bunda harbiy xizmatchilar urush sharoitlariga yaqin sharoitlarda jangovar harakatlarga o'rgatiladi.

Agar tinchlik sharoitida faoliyatning bu turi ustunli qilsa, urush boshlanishi bilan esa jangovar faoliyat birinchi o'ringa chiqadi.

O'quv-jangovar faoliyat quyidagi xususiyatlarga ega:

maqsad va vazifalarning o'ziga xosligi (armiyaning jangovar tayyorgarligini muntazam oshirib borish, qurollar va harbiy texnikani mukammal egallash va hokazo);

harbiy Nizomlar, buyruqlar asosida qat'iy rejalashtirish;

haqiqiy urush shart-sharoitlariga eng ko'p darajada yaqin sharoitlarda amalga oshirish;

tarbiyalash, o'qitish, ma'naviy-ma'rifiy va psixologik tayyorlashning turli-tuman tamoyil, vosita, shakl va usullaridan foydalanish;

hamma harbiy xizmatchilariing o'z kuch va imkoniyatlarini oxirigacha ishlatib faoliyat yuritishlari.

Harbiy xizmatchilarimizning o'quv-jangovar faoliyatlari Vatanimizning mustaqilligini, uning sarhadlarini himoya qilish uchun juda ham zarur.

O'quv jangovar faoliyat jarayonida shaxsning, jamoaning har tomonlama rivoji ta'minlansada, lekin uning asosiy vazifasi vaziyat taqozo qilganda tinch sharoitdan urush holatiga tezda o'tish uchun zarur bo'lgan sifatlarni tarbiyalashdan iborat.

Jangovar mahoratni shakllantirishning psixologik asoslari. Ma'lumki, har qanday faoliyatning asosini bilimlar tashkil etadi. Jangovar mahoratni shakllantirish uchun harbiy xizmatchiga ma'lum bilimlarni berish, unda o'ziga xos ko'nikma va malakalarni shakllantirish, kerakli shaxs sifatlarini kamol toptirish lozim.

Harbiy xizmatchida jangovar mahoratni shakllantirish juda ham murakkab va ko'p qirrali jarayon.

U yoki bu ongli faoliyatni yoki ixtiyoriy xatti-harakatlarni amalga oshirish uchun inson, avvalo ma'lum bilimlarga ega bo'lishi lozim.

Bilimlar qanday egallanadi?

Harbiy bilimlarni egallashda psixologik bilish jarayonlari katta rol uynaydi.

Harbiy xizmatchi komandirning tushuntirishlariga quloq tutadi, jarayonlarni kuzatadi, qurollar va harbiy texnikani ko'radi, mashg'ulotlarda esa o'rganilgan narsalarni bir-biriga solishtirish va umumlashtirish orqali tahlil qiladi. Qurollar va harbiy texnika bilan ishlaganda, mahsus topshiriqlarni bajarganda, taktik va dala o'quv mashg'ulotlari jarayonida harbiy bilimlar shakllanadi.

Bilimlarni o'zlashtirishda so'z nihoyatda katta ahamiyatga ega. Bilim bu – insonning atrofdagi predmetlar va hodisalarni, tabiat va jamiyat qonunlarini bilib olishidan iborat bo'lgan jarayon. Mavjud bilimlar og'zaki yoki yozma ravishda avloddan-avlodga o'tib, insonlar tomonidan o'zlashtiriladi. So'z shuning uchun ham katta ahamiyatga egaki, uni to'g'ri tanlaganda va to'g'ri ishlatgandagina insonning ongiga samarali ta'sir etish mumkin. Bilimlarni uzatish amaliy xarakterdagi masalalarni echish yoki rejali mashg'ulotlar jarayonida amalga oshadi.

Ta'lim jarayonida harbiy xizmatchilar oladigan bilimlar qat'iy ilmiy bo'lib, ilmiy tasavvur va tushunchalarga mos kelishi kerak.

Ta'limda bilimlarni ma'lum bir izchillikda berish katta ahamiyatga ega. Bilim o'rganilayotgan sohaga oid hamma narsani o'z ichiga olishi, o'zlashtirilayotgan tushuncha esa hamma tomondan ko'rib chiqilishi lozim. Ta'lim bir izchillikda o'zlashtirilgandagina muvaffaqiyatli kechishi mumkin.

Olinayotgan bilimlarni anglash, mohiyatiga etish ta'lim jarayonida eng muhim jihat hisoblanadi. Hech qachon bilimlarni mexanik yod olish kerak emas.

Ta'lim olingan bilimlarni amaliyotga qo'llash bilan yakunlanadi. Shuning uchun ham qoida, qonunlar, tushunchalarni o'zlashtirish amaliy vazifalarni bajarish bilan olib boriladi.

Chuqur va har tomonlama o'zlashtirilgan bilimlar harbiy xizmatchilarda kerakli ko'nikma va malakalarni hosil qilishning muhim sharti hisoblanadi. Xatti-harakatlarning avtomatlashgan turlariga ko'nikma deyiladi. Ko'nikma harakatlarning eng yuqori darajasi hisoblanadi, harakatlarning bu darajasi avtomatlashgan bo'lib, bu xil harakatlarni ongli nazorat qilishga ehtiyoj qolmaydi. Harakatning barcha elementlari bir tekisda, engil, tez, go'yo o'z-o'zidan bo'layotganday sodir bo'ladi.

Malaka insonning shunday qobiliyatiki, bunda u o'zidagi maxsus bilim va ko'nikmalardan faoliyatida maqsadga muvofiq va ijodiy foydalanadi. Malaka harbiy xizmatchidagi tayyorgarlik darajasini xarakterlaydi.

«Malakali harbiy xizmatchi» deganda biz nazariy, amaliy tayyorgarlikka ega bo'lgan, shuningdek, maxsus bilim, ko'nikma va malakalar sohibini tushunamiz. O'z sohasi bo'yicha chuqur bilim, kunikma va malakaga ega kishilarga o'z soha sining ustasi deyiladi. Malaka jangovar tayyorgarlik jarayonida paydo bo'ladigan qobiliyat bo'lib, u tez o'zgarib turadigan sharoitlarda u yoki bu faoliyat, alohida xatti-harakatlarni tez va aniq bajarishga yordam

beradi. Malaka avtomatlashgan harakat shakli bo'lgan ko'nikmalarni o'z ichiga oladi. Masalan: komandir qabul qiladigan qaror tahlil qilish, solishtirish, tafakkurning bir shaklidan ikkinchisiga o'tkazish kabi murakkab aqliy jarayonlar natijasida amalga oshadi. Qaror qabul qilish katta aqliy mehnat natijasida amalga oshadi. Aqliy mehnatni esa to'liq avtomatlashtirib bo'lmaydi. Ishning bu qismini amalga oshirish malakani talab qiladi. Bunday sharoitda ko'nikmalar nihoyatda zarur bo'ladi. Bu shu bilan izohlanadiki, kunikmalarsiz faoliyatni, ayniqsa, jang sharoitida kechadigan murakkab, qiyin va xavfli faoliyatlarni amalga oshirib bo'lmaydi. Harbiy psixologlarning tadqiqotlari va kuzatishlari shundan dalolat beradiki, qaltis va tahlikali sharoitlarda avtomatlashgan, ko'nikma darajasidagi barqaror xatti-harakatlar amalga oshirilgan ekan. Harbiy xizmatchilar bilan o'tkaziladigan mashg'ulotlarning shakli va uslublari ularda hosil qilinishi kerak bo'lgan ko'nikma va malakalarga bog'liq bo'ladi. Masalan: saf mashg'ulotlarida deyarli faqat ko'nikmalar shakllantiriladi, taktik o'quv mashg'ulotlarida esa asosiy e'tibor malakalarni tarbiyalashga qaratiladi. Demak, bir mashg'ulotdan keyingi mashg'ulotga sharoitlar o'zgarib borsagina malakani tarbiyalash mumkin. Ma'lumki, malaka ongli ravishda amalga oshiriladi, ko'nikma esa avtomatlashgan bo'lib, mexanik ravishda yuz beradi. Lekin ular o'rtasidagi bu farq shartli xarakterga ega. Buning ma'nosi shundan iboratki, insonlardagi ko'nikmalar har doim ong nazoratida bo'ladi. Insonda harakat ko'nikmalari va ulardan tashqari sensor (sezgi) va intellektual (aqliy) ko'nikma va malakalar ham mavjud. Sensor va intellektual ko'nikma hamda malakalar insonning tashqi harakatlarida zohir bo'lmaydi.

Jismoniy tayyorgarlik va saf tayyorgarligi mashg'ulotlarida, asosan harakat ko'nikma va malakalari shakllantiriladi. Radiotelegrafchilarda sensor va harakat ko'nikma hamda malakasi ko'proq rivojlanadi, hisoblash mashinalarida ishlaydigan kishilarda esa aqliy ko'nikma va malakalar rivojlangan bo'ladi. Radiolokatsiya stansiyasi operatorlarida sensor va aqliy ko'nikma va malakalarni rivojlantirish maqsadga muvofiq, ilmiy-texnik taraqqiyot tufayli harakat ko'nikma va malakalari o'z o'rnini sensor va aqliy ko'nikma va malakalarga bo'shatib beryapti.

Zamonaviy texnika bilan ishlaganda harbiy xizmatchining bir qator murakkab aqliy vazifalarni bajarishiga to'g'ri keladi. Bu esa undan olingan axborotlarni qabul qilish va qayta ishlash bilan bog'liq malakalarni, shuningdek, ushbu mashinalarni boshqarish malakalarini talab qiladi. Bu esa harakat ko'nikma va malakalari, shuningdek, jismoniy tayyorgarlik kerak emas degan ma'noni bildirmaydi. Jangovar texnika va qurollarning rivojlantirilishi, ulardan jamoa bo'lib foydalanish xususiyatlari shunga olib keldiki, Qurolli Kuchlar faoliyatida kollektiv xatti-harakat ko'nikma hamda malakalari muhim rol o'ynay boshladi. Shuni aytib o'tish kerakki, ko'nikma va malakalar insonning aqliy zo'r berishi bilan egallanadi. Harbiy xizmatchi nimani va nima uchun o'rganayotganini, shuningdek, bu narsa qaerda va qachon zarur bo'lishini anglashi lozim. Ofitser o'z qo'l ostidagilarga mavzuni shunday etkazishi kerakki, toki ularda kerakli ko'nikma va malakalarni egallash istagi paydo bo'lsin.

Tajribalarning ko'rsatishicha, qobiliyatli kishilar ham o'z faoliyatlaridan ijtimoiy mazmun topa olmasalar ko'nikma va malakalarni egallashda past natijaga yoki umuman

hech qanday natijaga erishishmas ekan. Ammo birgina xohish yoki intilishning o'zi biron-bir harakatni o'zlashtirishda kamlik qiladi, buning uchun harbiy xizmatchiga o'rganilayotgan harakatning tarkibi, tabiati va mazmunini chuqur tushunib etish talab etiladi. Shuning uchun ham aytaylik, murakkab mashinalarni boshqarishni o'rgatishdan oldin askarlarga ushbu mashinaning tuzilishi, shuningdek detallar, mexanizmlarning o'zaro uyg'un harakatlari tasvirlangan chizma va maketlarni ko'rsatish maqsadga muvofiq. Bu esa askarlarning jangovar mashinani boshqarish usullarini faol o'zlashtirishlariga olib keladi. Harakatlardagi xatoliklarni tushunib, natijalarni baholash ko'nikma va malakalarni shakllantirishdagi muhim shart-sharoit hisoblanadi. Askar ko'nikma yoki malakani ongli ravishda egallashi uchun uning ijodiy ishini har tomonlama qo'llab-quvvatlash kerak. Agar u taktik yoki otishga oid masalani mustaqil tuzadigan bo'lsa hamda uni echish yo'llarini ham ko'rsatsa, shuningdek ko'rgazmali vositalar tayyorlasa, mavjud priborni takomillashtirsa yoki yangisini ixtiro qilsa, bu juda ham yaxshi. Bu unga ushbu pribor yoki qurol bilan ishlash ko'nikma, malakasini egallashiga katta yordam beradi. Askarlar ko'nikma va malakalarining shakllanish jarayoni unda o'rganilayotgan jarayonning obrazidan boshlanadi. Shu maqsadda ofitser harakatning qanday bajarilishini amalda ko'rsatib beradi, shuningdek, hikoya qilib berish yoki boshqa usullar bilan askar ongida u yoki bu manzara hosil qilinadi. Shundan keyin askar harakatni yoki uning bir qismini bajarib ko'radi, bunda uning miyasidagi ushbu harakat obrazi etalon vazifasini bajaradi. Tabiiyki, birinchi urinishlarda xatoga yo'l qo'yiladi. Eng muhimi ofitser ushbu xatoliklarni e'tibordan soqit qilmasligi lozim.

Agar qandaydir bir arzi mas xatolik ham vaqtida tuzatilmasa, u mustahkam o'rnashib qoladi, shundan keyin, uni askar anglagan taqdirda ham qiyin kechadi.

Shuni esdan chiqarmaslik kerakki, biron narsani yangidan o'rganishga qaraganda uni qayta o'rganish ancha qiyin bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADBIYOTLAR:

1. Olimjonovich, Umarov Ismoiljon, Alijonov Baxtiyor Xoshimovich, and Sharopov Sherali Kamoliddin o'g'li. "YOSHLARNI HARBIY VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH VA HARBIY MA'SULIYAT HISSI." MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS 1.1 (2023): 21-24.

2. Xoshimovich, Alijonov Baxtiyor, and Karimov Ravshan Abdufattoyevich. "O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUDOFAA VAZIRLIGINING HARBIY QISMLARIGA TASHRIF BUYRISH VA ULARDAGI HARBIY MUTAXASSISLIK YO'NALISHLARI." IJODKOR O'QITUVCHI 2.23 (2022): 258-260.

3. Ch.R.Nasriddinov «Harbiy psixologiya» Fan nashriyoti, Toshkent 2004 y.

4. A.Sotib-Oldiev, A.Karimjonov «Harbiy pedagogika» Sharq nashriyoti, Toshkent 2009 y.

5. Q.A-Sh.Satib-Aldiev «Harbiy psixologiya va pedagogika asoslari» TDPU nashriyoti, Toshkent 2003 y.
6. A.S.Abdugodirov, G'.Ahmedov Harbiy xizmat axloqi. O'quv Qo'llanma Sharq nashriyoti, Toshkent 2007 y.
7. A.Beknazarov, F.Akramova, H.Quvondiqov «Psixodiagnostika» o'quv qo'llanma, O'R MV nashriyoti, Toshkent 2018 y.
8. Ch.R.Nasriddinov «Suitsid: muammo va echimlar» o'quv-uslubiy qo'llanma, Sharq nashriyoti, Toshkent 2005 y.
9. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Umumharbiy Nizomlari, Sharq nashriyoti, Toshkent 2018 y.
10. Olimjonovich, Umarov Ismoiljon, Alijonov Baxtiyor Xoshimovich, and Sharopov Serali Kamoliddin o'g'li. "YOSHLARNI HARBIY VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH VA HARBIY MA'SULIYAT HISSI." MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS 1.1 (2023): 21-24.
10. Xoshimovich, Alijonov Baxtiyor, and Karimov Ravshan Abdufattoyevich. "O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUDOFAA VAZIRLIGINING HARBIY QISMLARIGA TASHRIF BUYRISH VA ULARDAGI HARBIY MUTAXASSISLIK YO'NALISHLARI." IJODKOR O'QITUVCHI 2.23 (2022): 258-260.
12. Umarov, I. O. (2021). HARBIY TAYYORGARLIK O'QUV MARKAZIDA REZERVDA GI VA ZAXIRADAGI OFITSERLARNI TAYYORLASH: AN'ANALARI, INNOVATSIYALARI, ISTIQBOLLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(9), 939-944.
13. Umarov I. O., Abduraximov I. ZAXIRADAGI OFITSERLARNI TAYYORLASHDA, HARBIY TA'LIMNING MAQSADI, VAZIFALARI VA ISTIQBOLLARI //Journal of Integrated Education and Research. – 2022. – T. 1. – №. 7. – C. 15-18.
14. Umarov, Ismoiljon Olimjonovich, and Iskandar Abduraximov. "ZAXIRADAGI OFITSERLARNI TAYYORLASHDA, HARBIY TA'LIMNING MAQSADI, VAZIFALARI VA ISTIQBOLLARI." Journal of Integrated Education and Research 1.7 (2022): 15-18.
15. Umarov, I. O., & Abduraximov, I. (2022). ZAXIRADAGI OFITSERLARNI TAYYORLASHDA, HARBIY TA'LIMNING MAQSADI, VAZIFALARI VA ISTIQBOLLARI. Journal of Integrated Education and Research, 1(7), 15-18.